

## О'ZBEKISTONLIK MUJADDID OLIM - SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF

*Ilxomidinova Marhaboxon*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islomshunoslik mutaxassisligi*

*II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Bu maqolada XXI asrning yetuk olimi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning hayoti va faoliyati yoritilgan. Va ustozlari, olgan ijozalari, tashqi ko'rinishlari, ma'naviy sifatlari ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijoza, ma'naviy sifatlari, tashqi ko'rinish, mujaddid, islom.uz sayti, hijrat, e'tirof.

Yetuk alloma, mujaddid, mufassir, muhaddis, faqih, mutafakkir, murshid, zohid Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'z zamonasida islom olamining yirik namoyandasi, ulkan arbob, SSSR Oliy Kengashining xalq deputati, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining sobiq muftiysi, mustaqil O'zbekistonning birinchi muftiysi, ko'plab xalqaro ilmiy muassasalar, diniy tashkilotlarning a'zosi, o'zbekzabon xalqlarning diniy rahnamosi bo'lgan.

“Shayx Muhammad Sodiq hijriy 1371-yil 21-Rajab – milodiy 1952-yil 15-Aprel kuni Andijon viloyati Asaka tumanida, Niyozbotir qishlog'ida Muhammad Yusuf domla xonadonida tavallud topdi. Otalari Muhammad Yusuf domla Buloqboshi tumanida 45 yil imom-xatiblik qilgan va o'z masjidida juma oldidagi mav'iza asnosida vafot etgan... Ustoz Muhammad Yusuf domla va Sobiraxon ona farzandlarining tarbiyasiga qattiq e'tibor berishgandi. Onasi chaqaloqni imkon qadar betahorat emizmasdi. Shayx Muhammad Sodiq Qur'oni Karim, sarf, nahv kabi boshlang'ich ilmlarni otasida o'qidi. 1969-yili Buloqboshi qishlog'idagi o'rta maktabni tugatgach, 1970-yili Buxorodagi Mir Arab Madrasasiga o'qishga kirdi”.<sup>1</sup> U paytda madrasadagi o'qish 7 yillik bo'lgan. Shayx Muhammad Sodiqni o'sha kungacha hosil qilgan bilimi asosida bir yo'la 5-bosqichga olishdi. Natijada u madrasani 3 yilda tamomladi. Uni darsda, ilmda ilg'orligidan madarasadagi talabalar «peshqadam» deb atashardi. Muhammad Yusuf domla ham farzandining yaxshi ilm olishi, taqvoda mustahkam bo'lishi uchun bor kuchini sarfladi. Hatto o'g'lini boshqalar oraqali maxsus kuzatib bordi. Shayx Muhammad Sodiq 1973 yili madrasadan Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti (Oliy Ma'had)ga o'qishga kirdi. Qabul imtihonidan yuqori baholarda o'tgan Muhammad Sodiq institutga ham bir yo'la 3-bosqichga qabul qilindi

<sup>1</sup> Qirg'izistonning O'sh viloyatida shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufga bag'ishlangan “Hazrat” nomli xotira kitobi. Unda zamondosh olim va muxlislarning shayx haqidagi xotiralari jamlangan.

va uni ham 2 yilda a'lo baholarga bitirdi.

U 1975 yili «Sovet sharqi musulmonlari» jurnalida faoliyat boshladi. 1976 yili O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining yo'llanmasi bilan Liviyaning Tripoli shahridagi «Islomiy da'vat fakulteti» nomli dorulfununga o'qishga kirdi. Shayx Muhammad Sodiq Liviyada butun dunyodan kelgan talabalar orasida ham eng tirishqoq va eng ite'dodli talaba sifatida namoyon bo'ldi. U 1980 yili Liviya oliygohini eng yuqori ball bilan imtiyozli tamomlab, talabalar orasida birinchilikni qo'lga kiritdi va dorulfunun tarafidan moddiy mablag' bilan mukofatlandi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ustozlari:

Buxoroda Shahobiddin qori akadan qiroatdan, Muxtorjon domlada Alfiyadan, shuningdek, Usmonjon domla, Qosimjon domla, Abdullatif domla kabi yirik olimlardan madrasa barnomasidan tashqari alohida darslar oldi. Toshkentda ham institut darslaridan ortib Ismoil maxdum, Yusufxon Shokirov kabi olimlardan dars oldi. Liviyada o'qigan kezlari ham oliygoh darslaridan tashqari o'sha yerdagi olimlardan alohida ilm tahsil qildi. Keyinchalik mashhur Muhamad ibn Alaviy Molikiy, Abu Hasan Nadaviy, Solih Ahmad ibn Muhammad Idris Arakoniyy kabi Islom olami namoyandalaridan turli sohalardan ilm va ijozalar oldi.

Shogirdlari: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutida 1981 – 1989 yillar orasida mudarrislik qildi va bir qancha fanlardan dars berdi. O'sha yillarda institutda o'qigan barcha talabalar uning shogirdi bo'lgan. Masalan, Kavkaz bosh muftiysi Ismoil Berdiev, Rossiya muftiysi Ravil Ayniddin, Checheniston muftiysi va ilk prezidenti Ahmad Qodirov, dog'istonlik imom Muhammad Rasul, ozarbayjonlik olim Mulkador kabi ko'zga ko'ringan din arboblari ham unga shogird bo'lishgan. Undan tashqari Liviyada Anvar Ahmad, Xayrulloh Habibulloh, Muhammad Umar, Muhammad Qurbon, Rizqqulbek kabi bir qancha o'zbek talabalarga ham alohida ustozlik qilgan.

Shayx Muhammad Sodiq 2001 yilda O'zbekistonga qaytib kelgach, mamlakatdagi ko'plab ilm ahllari uning atrofiga to'planishdi. Ularning aksarlari unga shogird bo'ldi. Olgan ijozalari:

1. Solih Ahmad ibn Muhammad Idris al-Arakoniyy al-Makkiyning ijozasi. Unda shunday deyiladi: «U (ya'ni sanad) Islomning xossalaridandir. Islomda ham ahli sunnaning xossasidir. Binobarin, Shayx Muhammad Sodiq ibn Shayx Muhammad Yusuf oliyhimmatlik bilan mendan hadisi sharif va boshqa sohalarda ijoza so'radi. Men shunday deyman: «Mazkurga – Alloh bizga ham, unga ham ajrlarni oshirib bersin – barcha marviyotlarim, sanadlarim, sabtlarim, ijozalarim hamda 150 dan ortiq asarlarimda umumiy-mutlaq ijoza berdim, xuddi turli yurtlardan yuzdan ortiq shayx menga ijoza berganidek. Bu esa hadis va asar ahlining nazdida e'tiborli bo'lgan shart asosidadir».

2. Hadis kitoblari bo'yicha Imom Hofiz Ibn Hajarga yetib boradigan muhaddislar silsilasiga ulangan Abu Hasan Nadaviyning ijozasi.

3. Imom Abu Barakot Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiy al-Hanafiyning «Madarikut-tanzil va haqiqut-ta'vil» asari bo'yicha Abu Bakr ibn Ahmad al-Maliyboriydan muallifgacha bog'langan ijoza.<sup>2</sup>

Ilmiy faoliyati:

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ilk maqolalari 1975 yili «Sovet sharqi musulmonlari» nashriyotida ishlagan kezlari nashr qilina boshlagan.

1991 – 1993 yillari «Tafsiri Hilol» nomli Qur'oni Karim tafsirining 28 – 30-juzlari hamda «Poklik iymondandir» kitobi, 1992 yili «Iymon» va «Shoyadki taqvodor bo'lsak», 1997 yili «Islom musaffoligi yo'lida» asarlari chop qilindi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1993 – 2001 yillar orasida Yurt tashqarisida bo'ldi. Dastlabki bir yarim yil Makkai Mukarramada, 1994 yil noyabridan 2001 yilgacha Liviyada istiqomat qildi. Bu sanalar Shayx Muhammad Sodiq uchun ulkan ijodiy yutuqlarga boy bo'ldi. Qur'oni Karim tafsiriga bag'ishlangan yirik 6 jilddan iborat Tafsiri Hilol, hadisi sharif sharhiga bag'ishlangan 39 jilddan tashkil topgan Hadis va Hayot asarlarini ayni o'sha yillarda ta'lif qildi. U «Tafsiri Hilol» kitobining qolgan 27 juzini Qur'oni Karim ilk nozil bo'lgan Makkai Mukarramada, Haram oldida ta'lif etdi. Hadis va hayot asarini esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ravzalarida, u zotning iznlari bilan boshladi va qolgan qismini Liviyada yozib tugatdi. Undan tashqari, ko'plab davlatlarda bo'lgan xalqaro kofirensalarda, ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etdi, Islom olamining ko'plab olimlari bilan ijodiy muloqotlar, uchrashuvlar o'tkazdi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2001 yili O'zbekistonga qaytib keldi. O'zbekistonliklar Shayxni juda katta quvonch bilan kutib olishdi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'z yurtida 2001 – 2015 yillar orasida keng miqyosda ilmiy faoliyat olib bordi. Ko'plab kitoblar, ovozli hamda tasvirli yozuvlarda ilmiy suhbatlar, mav'izalar, turkum darslar, ma'raka-yig'inlardagi ma'ruzalari, xalqaro internet sahifasidagi 25000 dan ortiq turli mavzulardagi savol-javoblari bilan xalqning diniy savodi oshishiga, kishilarning sof Islomni anglashiga ulkan hissa qo'shdi. Uning ilmiy asarlari sababli xalq orasidagi ko'plab ixtilof va tortishuvlar barham topdi, hanafiy mazhabi mustahkamlandi, xatarli fitnalarning oldi olindi, qanchadan-qancha adashgan insonlar to'g'ri yo'lni tuta boshladi, musulmonchilikdan bexabar odamlar o'z musulmonchiligiga qaytdi, el orasida tinch-totuvlik, do'stlik ruhi taraldi.

Uning rahbarligida xalqaro internet tarmog'ida o'zbek tilidagi sof islomiy sahifaga ilk bor asos solindi. Ushbu islom.uz sayti o'zbek tilidagi eng faol va a'zosi eng ko'p sahifa hisoblanadi. Islom.uz portali asosida turli yo'nalishlardagi yigirmadan

<sup>2</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/islomga-baxshida-umr-shayx-muhammad-sodiq-muhammad-yusuf-kitob-oqish-haqida.html>

ortiq mustaqil sahifa yaratilib, ularning har biri o'z mavzusida eng boy va eng faol saytlarga aylandi. U to'qqizta hadis to'plami tarjimasidan iborat «Oltin Silsila» hamda katta «Islom qomusi» loyihalari asoschisidir.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur faoliyatlari bilan Markaziy Osiyoda ilmiy uyg'onish yasadi. Uning asarlari, suhbatlari ko'plab ilm ahliga ilhom baxsh etdi. U o'z asarlarining boshida beradigan yuqorida ko'rsatilgan shioriga har doim amal qildi. U sof Islomni o'rganish va o'rgatish yo'lida yangi bir maktabga asos soldi. Yuzlab shogirdlarni tarbiyaladi. Unga g'oyibona shogird bo'lganlarning esa son-sanog'i yo'q. Bir qancha asarlari rus tiliga tarjima qilindi. Uning tashabbusi bilan rusiyzabon xalqlarga ham ulkan islomiy ilmlar yetib bormoqda. Shuningdek, uning asarlari uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi bir muncha qardosh tillarga ham tarjima qilingan va qilinmoqda. Markaziy Osiyoda bunchalik sermahsul, unumli va ta'sirli ijod qilgan olimni o'tgan ikki-uch asr ichida ham topish mushkul.<sup>3</sup>

Tashqi ko'rinishi:

Shayx Muhammad Sodiq bo'ychan, barvasta, qomati tik, kelishgan, baquvvat, ko'rkam kishi edi. Qizg'ish oq rangli, soch-soqoli o'ziga yarashgan, tishlari tekis, qoshlari qalin, yuzlari nurli, nigohi o'ychan, haybatli, o'zi nihoyatda viqor va mahobatli, barkamol inson edi. Soch-soqolini ortiqcha o'stirmasdi. Tanasi sog'lom, kuchli, chiniqqan, odimlari dadil va yengil, yurishlari salobatli, ruhi doim tetik, yuragi baquvvat edi. Nima kiyim kiya yarashardi, balki libos uning egnida ko'rkamlashib ketardi. Ovozi mahobatli, zalvorli, nutqi chiroyli, dona-dona, tafakkuri teran edi. O'z fikrini tinglovchiga go'zal va sodda yetkazib bera olardi. Mav'izalari tushunarli, purma'no, tinglovchini rom qiladigan, eshitib to'ymaydigan bo'lardi. O'ta murakkab fikrlarni oddiy inson tushunadigan so'zlar bilan ifodalay olardi. Shayx o'z salomatligiga yaxshi e'tibor qaratardi, muntazam jismoniy tarbiya bilan shug'ullanar, yemoq-ichmog'ining foydali va tartibli bo'lishiga ahamiyat berardi. Vaqti-vaqti bilan sihatgoh muolajalarini olib tutardi.

Ma'naviy sifatlari:

Shayx Muhammad Sodiqning tashqi suvrati qanday ko'rkam bo'lsa, ichki olami yana-da go'zal edi. U kishi yuragi toza, ko'ngli keng, xushxulq, adolatparvar, haqgo'y, bag'oyat samiyimiy, nihoyatda xolis, qalbi salim, ruhan ulug'vor, pok niyatli inson edi. O'ziga yoki oila a'zolariga yaxshilik qilganlarni har doim qadrlar, yaxshiliklariga yarasha ularga muruvvat ko'rsatardi. Biror insonga yomonlikni ravo ko'rmasdi. Oilaparvar, bolajon, vatanparvar, xalqparvar, oliyjanob inson edi. U kishi pokizalikni, tartib-intizomni, go'zallikni yaxshi ko'rardi. Hech kimga nisbatan adovat qilmas, hech kim bilan dushmanlashmas edi. O'ziga nisbatan qilingan xatkorliklarni ham kechirib yuborardi. Doim buyuk ishlarning payida bo'lardi. Maydakashlikni yoqtirmasdi,

<sup>3</sup> Islomga bag'ishlangan umr. Hujjatli film.

g'iybat-ig'voga mutlaqo qarshi edi. O'zining xayrli ishlarini, har qancha salmoqli bo'lmasin, buyuk sanamas, barchasini yolg'iz Allohdan ko'rardi. O'zgalarning xayrli ishlarini juda ham olqishlar, ularning muvaffaqiyatlaridan behad quvonardi. Har bir so'zi, har bir ishi ilm asosida bo'lardi. Qur'onu Sunatga imkon qadar to'la amal qilardi. Mazhabga doim rioya qilardi. Islomga, ilmga xiyonatni hech qachon yoqlamasdi. Nimani yozgan, nimani aytgan bo'lsa, avvalo o'zi unga amal qilardi. Dunyo matohini umuman e'tiborga olmasdi. Din-u el tashvishidan boshqa g'ami bo'lmasdi.

Shayx Muhammad Sodiqning ilmga muhabbati cheksiz edi. Uning uchun eng qadri va qimmatli narsa vaqt edi. U talabalik davridan boshlab o'zi uchun kun tartibi va kundalik vazifalarni tayinlab olgan bo'lib, bu nizom «temir qonun» sanalardi. U bunga qat'iy amal qilardi. Biror onni behudaga sarf qilmasdi. Shuningdek, har nafasda qalban zikr va muroqabada turardi.

Shayx Muhammad Sodiq o'zida ulug'vorlik bilan kamtarlik, o'tkir bilimdonlik bilan soddalik, daho bilan tavozu', podsholardek siyosatdonlik bilan otalardek mehribonlik, haybat bilan beg'uborlik, boylik bilan zohidlik, ustozlik bilan toliblikni jamlagan edi. U kishi buyuk arbob bo'lish bilan birga oddiy musulmon bo'lishni ham unutmadi, yuksak shon-shavkatga ega bo'lish bilan birga fitrat sofligini ham saqladi. Har qanday holatda o'zini yo'qotmas zabardast edi. Haybatidan boshqalar uning oldida o'zini ham, so'zini ham yo'qotib qo'yardi.

Shayx Muhammad Sodiq mehri daryo inson edi, keng bag'ri hammani o'ziga sig'ira olardi. U bilan yaqindan muloqot qilgan barcha odamlar o'zini unga eng yaqin inson deb o'ylardi. Hech kimdan mehru muruvvatini ayamasa, har kimning arzini eshitar, dodiga quloq tutar edi. Hatto kishilar o'z dardlarini ota-onasidan ko'ra u kishiga arz qilishni ko'proq istashardi.

### **Butun dunyo ulamolari e'tirof etgan zabardast olim haqidagi fikrlardan ba'zilari:**

Shayx Ali Muhyiddin Qoradog'iy (Butunjahon ulamolar hamjamiyatining bosh kotibi): «Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari vafot etganlarida ikki marta qayg'uga tushdim. Birinchisi — shaxsiy, oilaviy munosabatim bo'lgani uchun, u kishini tug'ishgan aka-ukamdek kurganim uchun. Ikkinchisi — uyushmamiz duch kelgan og'ir judolik uchun qayg'urdim.

«Innaa lillaaxi va innaa ilayhi roji'uun »

Doktor Irfon Kunduz (Ibn Xaldun universiteti boshqaruv hay'atining rai si, mutasavvuf olim): «Shayx Muxammad Sodiq hazratlarining yo'qligini shunaqa, baholaymanki, go'yoki bir odam emas, bir olamni yuqotdik».

Nafigulla Ashirov (Rossiya musulmonlarining Osiyo qismi idorasi muftiysi): «Ummat u zotni yo'qotgani yo'q. U zot kitoblarida, fikrlarida, shogirdlarida, va'z-irshodlarida yashamoqdalar. U zot bizni isloh qildilar, biz avvalgidan yaxshiroq darajaga ko'tarildik».

Muhammad Saloxitdinov («Sobranie» uyushmasi prezidenti, jamoat arbobi): «Birinchii navbatda yoshlarga qaxramonlar kerak. Ular kimdandir oʻrnak olishi, kimgadir ergashishi kerak. U zot — musulmon yoshlar oʻrnak olishi kerak boʻlgan ana shunday qahramon boʻldilar».

Umar Qoʻrqmas (Turkiya taʼlim vazirining maslahatchisi, aqoid olimi): “Mening fikrimcha, Imom Buxoriy, imom Moturidiy, Naqshband hazratlari qanday hizmat qilgan boʻlsalar, Shayx Muhammad Sodiq ham shu yoʻlda yurdilar. Endi biz ana shunday Muhammad Sodiqlarni tarbiyalab yetishtirish uchun gʻayrat qilishimiz kerak”.<sup>4</sup>

Vafoti: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 05.05.1636/10.03.2015 kuni shomdan keyin Toshkentda yurak xurujidan vafot etdi. Ertasi kuni peshinda Koʻkcha dahasidagi Shayx Zaynuddin masjidida janozasi oʻqildi. Janozaga mamlakatning turli mintaqalaridan 200 000 dan ortiq kishi yetib keldi. U kishi Masjid yonidagi Shayx Zaynuddin qabristoniga dafn etildi.

*Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islomshunoslik mutaxassisligi II bosqich magistranti Iloxmidinova  
Marhaboxon Oʻtkirjon qizi.*

---

<sup>4</sup> Omina electron jurnali 7(40).-son.2022-yil,iyul. ( Hijriy 1443-yil, zulqaʼda).